

## TIL INTERFERENSIYASIGA OID TURLI TALQINLAR TAHLILI

**Ismoilova Shodiyaxon**

FarDU tayanch doktoranti

### *ANNOTATSIYA*

*Ushbu maqola til interferensiyasi hodisasiga nisbatan turli xorijiy davlat olimlarining fikr-mulohazalari tahlilini o'z ichiga olgan bo'lib, til interferensiyasining qardosh hamda qardosh bo'lmagan tillardagi ko'rinishi misollar yordamida aks ettirilgan. Lingvistik hodisa sifatida interferensiya turlicha yondashuvlar asosida o'rganilayotgan aspekt bo'lib, bunday tushuncha shu jumladan ikkinchi tilda nutqning xususiyatlari nuqtai nazaridan, muayyan ijtimoiy, kasbiy va yosh guruhlari nuqtai nazaridan bir qancha olimlar tomonidan o'rganilib, tahlil qilinib kelinmoqda. "Interferentsiya" so'zi bilan bir xil ma'noda, ba'zi tilshunoslar (J. Greenberg, R. Dibold va boshqalar) "diffuziya" atamasini ham qo'llashgan.*

***Kalit so'zlar:** Til interferensiyasi, interferensiv kompetentlik, qardosh tillarda interferensiya omili, qardosh bo'lmagan tillarda interferensiya omili.*

Ko'p tillilik sharoitida chet tilini o'zlashtirish jarayonida ona tiliga tayanish tamoyili asosiy o'rinni egallaydi. Ona tilining ishlash xususiyatlarini anglash chet tilining ishlash tizimidagi bir xil va differentsial xususiyatlarni tushunishga imkon beradi. Metodistlar buni har xil aniqlaydilar. Masalan, V.Masalskiy buni tillarni parallel o'rganish tamoyili, O.Xoroshkovskaya esa birinchi tildan bilimlarni juftlashtirish tamoyili deb ataydi, K.Babov uni ona tili bilimlarini ijobiy o'tkazishdan maksimal foydalanish tamoyili sifatida ta'kidlaydi. E.I. Passovning fikricha esa, ona tiliga tayanish tamoyili bilan ona tilini hisobga olish tamoyilini farqlash kerak.

Interferentsiya, albatta, ikki tillilikni ham anglatib, u bir kishi yoki ma'lum bir guruh tomonidan (agar bitta hududda ikkita til mavjud bo'lsa) ikki tilga ega bo'lishdir. Shu jumladan, agar odamga yaqin muhitda, unga yaqin kishilar, oilasi yoki yashash hududidagi odamlar, ma'lum bir tilda gaplashsa, u ana shu tilni avtomatik ravishda o'rganishni boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda, kundalik hayotda shaxslar tilning o'zidagina foydalanmaydilar, aksincha muloqot jarayonini to'ldiruvchi boshqa vositalar: tana harakatlari, imo-ishoralar, yuz mimikasi va boshqalardan foydalanar ekan, ong notanish lug'atlarni ham kontekst sharoitida bimalol tushunishi va o'rganib olishi mumkindir. Ikki tillilik inson nutqiy aloqaning muayyan sharoitida bir til kodidan ikkinchisiga o'tganda sodir bo'ladi, deb taxmin qilinadi. Bu bir milliy tildan ikkinchisiga, milliy tildan shevaga yoki millatlararo, xalqaro muloqot tiliga o'tish bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, tillarning o'zaro bir biriga ta'siri holatida ham interferentsiya alohida ahamiyatga ega, bu bir xil shaxs (bir xil jamoa) doimiy holatta muloqot jarayonida turli til elementlaridan foydalanganda yuzaga keladi. Ikkinchi tilni o'rganish nazariyasida "interferentsiya" tushunchasi muhim ahamiyat kasb etdi. Yuqorida ta'kidlanganidek, interferentsiya ikkinchi til o'rganilayotganda ona tili bilan yoki qo'shimcha chet tili o'rganilayotganda avvalgi tajribaning ta'siri natijasida yuzaga keladi. shuningdek ko'p holatlarda til interferentsiyasi 2xil holatta: qardosh tillar o'rtasidagi o'ta yaqin o'xshashliklar oqibatida og'zaki nutqdagi chalkashishlar yoki aksincha qardosh bo'lmagan tillar o'rtasida esa sintaktik/grammatik holatlarda kuzatiladi (1-jadval).

Tillar	Misollar	Izoh	
Ingliz tili - Nemis tili	Swim -swimmen And- und Speak-sprachen	<i>[swim]</i> - <i>[ˈfʌmən]</i> <i>[ænd/ənd]</i> - <i>[ʌnt]</i> <i>[spi:k]</i> - <i>[ˈfpreçən]</i>	Ushbu soʻzlar talaffuzi juda yaqin boʻlganligi sababli ogʻzaki nutq jarayonida birinchi oʻrganilgan til taʼsirida ikkinchisi til interfereniyasiga uchraydi
Ingliz tili – Turk tili	I am learning turkish language now. Şimdi türkçe öğreniyorum.	S+V+O+T  T+O+V+S	Ushbu holatda esa gap tuzish qonuniyatlari jihatidan tillar oʻrtasidagi katta tafovut ham til interfereniyasiga olib keladi va til oʻrganuvchilarda gap tuzish tartibini chalkashtirib yuborilishiga sabab boʻladi

*1-jadval*

Dastlab, bu tushuncha faqat til aloqalarini oʻrganadigan areal tilshunoslikda qoʻllanilgan. Biroq keyinchalik U.Vaynrayxning til aloqalari haqidagi ishi paydo boʻlgach, interferensiya tushunchasi amaliy tilshunoslikda markaziy oʻringa ega boʻldi. Vaynrayx ushbu muhokamalarni boshlaganda esa, hamma narsa nafaqat soʻz talshunoslikka, balki nazariyaga va psixologiyasiga ham bogʻliq ekanligi ayon boʻldi. Shunday ekan ushbu masalaga metodik yondashuv dolzarb masalalardan biri boʻlib, interferensiyani bartaraf etish usullari va vositalarini koʻrib chiqishni maxsus mashqlar, real muloqot amaliyoti, nutq soʻzlash kabilar yordamida amalga oshirishni oʻz ichiga oladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

1. Пассов Е.И. Сорок лет спустя, или сто и одна методическая идея. М., 2006.
2. Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам. М., 1991.
3. Ismoilova, S. (2023). CHET TILI O‘RGANISHDA KOMUNIKATIV HAMDA INTERFERENTIV KOMPETENSIYALARNING AHAMIYATI. *Interpretation and researches*, 1(14).
4. Ismoilova, S. (2022). SUGGESTIONS FOR THE METHODOLOGICAL ORGANIZATION OF TEACHING AND LEARNING INTERROGATIVES. *Science and Innovation*, 1(5), 266-270.